

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

BUXORO BUYUK ALLOMALAR VA ZIYORATGOHLAR SHAHRI

To‘rayev Anvar Ismoilovich

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasи katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrida yashab, o’zining hayotini islom dini rivojiga bag’ishlagan daholar, alloma va avliyolar deb sanalib kelingan shaxslar hayoti aks etgan. Aslida ularning soni anchaginani tashkil qilgan bo’lib, quyida faqat ularning ko’pchilikka tanish bo’lgan vakillari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Sharif shahar, Buxoro, “Qubbatul Islom”, Abu Hafs Kabir, Abu Hafs Sag’ir, “Mabsut”, “Hazrati Imom”, Darvozayi Nav, Sayfiddin Boharziy, Amir Temur, Muhammad Porso, Shayx Jalol, Eshoni Imlo, Ismatillo Buxoriy, sovetlar.

БУХАРА, ГОРОД ВЕЛИКИХ СВЯТЫХ И ПАЛОМНИЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье отражена жизнь гениев, учёных и святых, живших в городе Бухаре и посвятивших свою жизнь развитию ислама. На самом деле их довольно много, и ниже мы поговорим лишь об их представителях, знакомых многим людям.

Ключевые слова: Шариф Шахар, Бухара, «Куббатуль Ислам», Абу Хафс Кабир, Абу Хафс Сагир, «Мабсут», «Хазрати Имам», Дарвазай Нав, Сайфиддин Бохарзи, Амир Темур, Мухаммад Порсо, Шейх Джалал, Эшони Имло, Исматилло Бухари, Советы.

BUKHARA, THE CITY OF GREAT SAINTS AND PILGRIMAGES

Abstract: This article reflects the lives of geniuses, scholars and saints who lived in the city of Bukhara and devoted their lives to the development of Islam. In fact, there are quite a few of them, and below we will talk only about their representatives who are familiar to many people.

Keywords: Sharif Shahar, Bukhara, "Qubbatul Islam", Abu Hafs Kabir, Abu Hafs Sagir, "Mabsut", "Hazrati Imam", Darvazai Nav, Sayfiddin Boharzi, Amir Temur, Muhammad Porso, Sheikh Jalal, Eshoni Imlo, Ismatillo Bukhari, the Soviets.

Islom olamida shunday ajoyib maskanlar borki, ularning darajasi nihoyatda baland va islom olamidagi tutgan o’rni juda yuksakdir. Barchaga ma’lum va

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

mashhur Islom dunyosining yetti sharif shaharlari o'zining o'tmishi va din yo'lida ko'rsatgan ulkan xizmatlari sababli shu maqomga erishganlar. Ular: Makkai Sharif, Madinayi Sharif, Quddusi Sharif, Damashqi Sharif, Bag'dodi Sharif, Mozori Sharif va yurtimizda joylashgan Buxoroi Sharif hisoblanadi.

Buxoro nafaqat shu nom bilan cheklanib qolgan, balki uning "Qubbat ul - islom" maqomi ham mavjuddir. Albatta ushbu maqomlarning berilishi bejizga emas, balki ushbu shahardan ko'plab allomalar, mashhur ulamolar, valiyalar, avliyolarning yetishib chiqqanligi, shahar aholisining aksariyatini taaqvoli kishilar tashkil etganligi sababli hamdir. Shuningdek asrlar davomida islom dini yo'lida xizmat qilgan ko'plab buxorolik allomalarning qabrlari ham shu shaharda joylashgan.

"Qubbat ul-Islom" maqomini tilga olar ekanmiz, shaharning ushbu darajaga erishishi uchun sabab bo'lgan shaxsni tilga olmay iloj yo'q. Abu Hafs Ahmad ibn Hafs Buxoriy Hanafiy (hijriy 150-217, milodiy 767-832) shular jumlasidandir. Ahmad ibn Hafs ibn Zaburqon ibn Abdullox ibn Buxoriy nomlari bilan ham yuritiladi. Alloma, hanafiylar shayxi, faqih Abu Abdulloh Muhammad ibn Hafsning otalari hisoblanadi¹. Dastlabki ilmlarni o'z yurtida egallaydi so'ngra Bag'dodga borib, u yerda Abu Hanifa as'hobining ko'plarini uchratgan, ulardan Muhammad ibn Hasanning bir necha yil ilmiy majlislarida bo'lgan, uning "Mabsut" kitobini ko'chirgan. U Imom Muhammaddan keyin eng kuchli, eng ishonchli, eng taqvodor faqih hisoblangan. Bunga dalil sifatida quyidagi rivoyatni keltirish mumkin: Abu Hafs bilan birga Imom Muhammaddan tahsil olgan Abu Sulaymon Juzjoniyning ta'kidlashicha: "Ustozim Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniydan: "Agar siz vafot etsangiz ilmni kimdan olaylik?", deya so'radim. Shunda ustozim: "Hech kim menden ilmni Abu Hafs Buxoriychalik ololmagan", dedilar².

Abu Hafs Kabir nafaqat fiqh sohasida samarali ijod qilgan, balki u hadis va kalom ilmlarining ham yetuk bilimdoni sanaladi. VIII-X asrlarda Movarounnahr, Xuroson, Iroq va boshqa mintaqalardan yetishib chiqqan hanafiy muhaddislari va faqihlarining faoliyatları haqida Abdulloh Subazmuniy o'zining "Kashfu-l-osor" asarida qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Jumladan, asarda Abu Hafs Kabir va uning avlodlari Buxorodan chiqqan ilk hanafiy muhaddislari qatorida zikr etilgan³. Albatta ushbu fiqh va muhaddislik ilmi orqali Buxoro hadis ilmi maktabining shakklanishi

¹ Imom Abu Abdulloh Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Mashhur daholar siyrati. -T.: "Hilol Nashr", 2017. -B. 142.

² <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1347> (ushbu saytga 20.05.2024 da murojaat qilindi).

³ <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1347> (ushbu saytga 20.05.2024 da murojaat qilindi).

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

va keljakda uning Imom al-Buxoriy tominidan rivojlantirilishiga sabab bo'lgan. Shu sabab ham ushbu shaxsga "Kabir" (katta) yoki "Kabir Buxoriy" (Buxoriylarning kattasi) kunyasi qo'shib aytilgan. Xalq tilida "Imomi Hojatbaror", "Hazrati Imom", "Hazrati Hojatbaror" nomlari bilan ham mashhur. Buxoro shahridda vafot etgan. Allomaning qabri hozirda Buxoro shahrining "Hazrati imom" qabristonidadir. Buxoro ahli ushbu joyni "haq rah" (haq yo'l) deb ham atashadi.

Shunday olimlar orasida Abu Hafs Kabirning o'g'li Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Hafsnini ham eslab o'tmoq joiz. Chunki, Abu Abdulloh ham buxorolik mashhur imomlardan hisoblanib, o'z davrining mashhur muftiysi va olimi sifatida shuhrat qozongan. Manbalarda aytishicha butun Buxoro ahli ushbu allomadan fiqh ilmidan saboq olgan. Hijriy 270-yilda vafot etgan⁴. Abu Hafsi Sag'ir kunyasi bilan shuhrat qozongan. Otasi kabi Darvozai Nav qarshisidagi tepalikda dafn qilingan. Sovet boshqaruvi davrida Abu Hafs Kabir va Abu Hafsi Sag'ir dafn qilingan qabristondagi binolarning aksariyati buzib tashlangan. Mustaqillik yillarda ushbu imoratlar tiklanib, Abu Hafs Kabir qabri ustida ulkan maqbara qad rostladi. Ayni damda ushbu qabriston Buxoro shahrida eng katta qabriston hisoblanadi.

Sayfiddin Boharziy ham Buxoroda istiqomat qilgan hisoblanib, 1190-1261yy da umrguzaronlik qilgan. To'liq ismi Sayfiddin Abul Maoliy Said ibn Mutahhar ibn Sa'id ibn Ali Qoiriy Boharziy. Imom, muhaddis, taqvodor, zohid, sunnatga – hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v) izlariga ergashganlardan⁵.

Tarixiy asarlarga⁶ ko'ra Abu Jannob Xivaqiy (yoki Najmuddin Kubro) ning shogirdlaridan hisoblanib, o'z davrining mashhur muhaddis va ulug'vor da'vatchilardan bo'lgan. Asosan ushbu shaxsning biografiyasiga nazar soladigan bo'lsak, Buxoro va Movorounnahr ahlini mo'g'ullar zulmiga qarshi da'vat qilgan shaxslardan hisoblangan. Ba'zi hollarda esa mo'g'ul millatiga mansub kishilarni islom diniga qiziqtirib ularni islom dinini qabul qilishida asosiy rol o'ynaganligini ham ko'rish mumkin.

Shu jumladan, Sayfiddin Boharziy ta'sirida alohida mo'g'ullar islom dinini qabul qila boshladilar, masjid va madrasalar qurilishiga homiylik qildilar. Islom dinini qabul qilgan hukmdorlar Shayx Sayfiddin Boharziyning duosini olishni sharaf

⁴ Imom Abu Abdulloh Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Mashhur daholar siyrati. -T.: "Hilol Nashr", 2017. -B. 106.

⁵ Imom Abu Abdulloh Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Mashhur daholar siyrati. -T.: "Hilol Nashr", 2017. -B. 153.

⁶ "Mujam ul-Alqob", Ibn Futaviy qalamiga mansub.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

deb bilganlar. Oltin O'rda xoni Berke buyuk shayx qo'lidan Islomni qabul qilish uchun Volganing quyi oqimidan Buxoroga maxsus yetib kelgan⁷.

Afsona va rivoyatlarga ko'ra Sohibqiron Amir Temurning otasi Amir Tarag'ayni onasi Takina Mohbegimga unashtirgan⁸ shaxslardan ham bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, Sayfiddin Boharziy hazratlari bir tomchi ham qon to'kmay millionlab insonlar haq yo'lga yetishi, islom ulkan bir davlat fuqarolarining rasmiy diniga aylanishiga erishdilar. Bundan xabar topgan arab xalifi Sayfiddin Boharziyga "Shayx ul-Olam" unvonini, Buxoroga "Muqaddas shahar" maqomini berish to'g'risida yorliq yuboradi. O'sha davrgacha musulmon olamida islom vujudga kelgan Quddus shahri bunday sifatlarga munosib topilgan edi, xolos⁹.

Natijada, ko'plab chingiziy hukmdorlar islom dini va boharziyning ta'limotiga ergashib, ushbu shaxsni o'ziga ustoz deb bilgan. Misol tariqasida 1353-yilda vafot etgan mo'g'ul xoni Bayonqulixon o'ziga ustoz deb hisoblagan Boharziyning yonlariga dafn qilingan. Hozirda Sayfiddin Boharziy va Bayonqulixon maqbaralari Buxoro shahrining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, yaxshi saqlanib qolgan va hamon ustoz-shigirt timsoli sifatida qad rostlab turibdi.

Keyingi allomalar qatorida Muhammad Porsoni ham ta'kidlab o'tmoq joiz. To'liq ismi Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hofiziy al-Buxoriy. Xojagon-Naqshbandiya tariqati namoyanlaridan biri hisoblanadi. 1345 yilda Buxoroda tug'ilgan Xoja Muhammad Porso shu yerdagi madrasalarda o'qib, Qur'oni karim, hadis ilmlarini chuqur o'rganib, zamonasining zabardast allomalaridan biri bo'lib yetishdi. Bahouddin Naqshbanddan keyin islom olamida naqshbandiya oqimining eng yirik vakili hamda targ'ibotchisi sifatida mashhur bo'ldi. Xoja Muhammad Porso Movarounnahr hukmdori Xalil Sulton bilan muloqotda bo'lgan, Shohruh Mirzo bilan turli masalalar bo'yicha yozishmalar olib borgan. Mirzo Ulug'bek saroyi (Samarqand va Buxoro)dagi ilmiy munozaralarda qatnashgan. Xoja Muhammadga "Porso" (taqvodor, dindor) degan sharaflı nomni hazrat Bahouddin Naqshband bergan¹⁰.

Muhammad Porsoning Buxoroning Eski Shahar qismida madrasa va masjidi joylashgan. Garchi alloma Makkada vafot etgan bo'lsada, madrasa ichida ramzii

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfiddin_Boharziy (ushbu saytga 19.05.2024 da murojaat qilindi)

⁸ Наимов. Н. Бухори шариф. -Бухоро. "Бухоро", 2005.-Б. 34.

⁹ Наимов. Н. Бухори шариф. -Бухоро. "Бухоро", 2005.-Б. 34.

¹⁰ <https://www.oyina.uz/uz/generation/171> (ushbu saytga 20.05.2024 da murojaat qilindi)

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

qabr joylashgan. Hanuzgacha ayollar is pishirib ushbu joyni ziyyaratgoh sifatida yo'qlab turishadi.

Hazrat Shayx Jalol ham islom olamida zabardast ulamolardan hisoblanib kelinadi. Garchi ushbu ilohiyotchining yashagan yillari sanasi aniq keltirilmasada, uning kimligi haqida XX asrgacha barcha buxorolik kishi xabardor bo'lган. To'liq nomi Shayx Jalol Hiraviy Buxoriy. Shayx Jalol 1478-yilda Hirotda tavallud topgan. XVI asr boshlarida Hirotda sunniy va shia ulamolari o'rtasida keskin nizolar yuz berib, har ikkala tomon bir-birini ta'qib qilishga kirishadi. Ko'plab sunniy ulamolari, shoirlar, tarixchilar, musavvirlar Movarounnahrga ko'chishga majbur bo'ladilar. Bular orasida Shayx Jalol ham bor edi. Shayx Jalol Hirotda Muhammad Shayboniyxon tomonidan olingandan keyin Buxoroga kelgan bo'lishi kerak¹¹.

Xuddi shu nomad Buxoroning janubdag'i darvozalaridan biri nomlangan va u hozir ham mavjud. Darvoza tashqarisida Shayx Jalol nomli qabriston ham joylashgan bo'lган. Ammo Sovet istibdodi davrida qabriston qabrlari kovlab olinib, qabriston yo'qotib yuborilgan.

Buxoro allomalari orasida o'zining nafis she'rlari bilan insonlar ko'nglini ovlagan mashhur tasavvuf ilmi vakillaridan hisoblangan Eshoni Imlo nimi bilan mashhur bo'lган Sayyid Oxund Mullo Muhammad Imlo Buxoriy hisoblangan. Buxoroda uni "oxirzamon avliyosi" yoki "oxirgi avliyo" deb atashgan. U Yassaviylik tariqati namoyandalaridan hisoblanib, ular orasida 15-shayx hisoblangan¹². Ba'zi manbalarda vafot etgan yili 1749-yil deb berilgan¹³. Umri davomida fors tilidagi g'azal va ruboiylar bitgan devoni hozirgacha ham yetib kelgan.

Xuddi shu nomdagi qabriston ham mavjud bo'lган hisoblanib, Jo'ybor bilan chegaradosh hududda, Xiyobon jaribidan joy olgan. Ko'pchilik mang'it sulosasi vakillari shu yerda dafn qilingan. Sovet rejimi davrida qabriston buzib tashlangan.

She'riyat yo'li bilan islom yo'lida xizmat qilgan allomalar soni faqatgina Eshoni Imlo bilan cheklanib qolmaydi. Ularning orasida juda ko'p ardoqlanadigan allomalardan biri Xo'ja Ismatillo Buxoriy (1365-1426)¹⁴ sanaladi. Hayotlik damlari haqidagi ko'plab ma'lumotlarni Alisher Navoiy va Davlatshoh Samarqandiylar

¹¹ To'rayev H.H. Buxoro tarixi. Buxoro.: Durdona, 2020.-B. 320.

¹²https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%88%D0%B0%D0%BD_%D0%98%D0%BC%D0%BB%D0%BE (ushbu saytga 07.01.2024 murojaat qilindi).

¹³ Воҳид С. Бухорийлар бўстони. -Т.: "Ёзувчи", 1998. -Б. 62.

¹⁴ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. -Т.: 1981. -Б. 146.

keltirishgan. Navoiy o'zining "Majolis un-Nafois" asarida mazkur shaxs haqida quyidagilarni so'zlaydi: "...zohir ilmin takmil qilg'ondir. G'oyat xushta'bligidan o'zin she'rga mansub qilib, devoni mashhur bo'ldi...". Shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirai shuaro asarida ham shoir haqida ajoyib ma'lumotlar keltiriladi: "Buzurgzoda, fozil va bilimdon kishi ermish, nasabi Ja'far ibn Abu Tolibga... ulanadi. Xoja Ismatulloning ota-bobolari Buxoroda ulug' va fozil kishilardan ekanlar. Otasi Xoja Mas'ud Buxoro zodagonlari jumlasidandir... Xoja Ismatullo Sulton Xalil hukmronligi davrida uning tarbiyatini topgan. Shahzoda uni g'oyat ehtirom qilur edi... Hasadchilar va g'arazgo'ylar Xojaning shahzodaga yaqinligi borligini mushohada etib, unga malomat qildilar. Lekin bu azizning ko'ngli va nazari bundan pok edi. Sulton Xalil she'r ilmini xojadan o'rgandi..."¹⁵ degan jumlalar aks etgan. Boshqa valiyalar singari olimning nomida Buxoro eski shaharidan tashqarida, asosan erkak kishilar yig'iladigan¹⁶ qabristoni joylashgan. Ko'pchilik qabristonlar singari bolsheviklar tomonidan yer bilan yakson qilingan, masjidi buzib tashlangan. Qabristonning aksariyat qismini aholi o'zlashtirgan va bir vaqtlar hatto qabrlar uzra chorva mollari o'tlatishga olib chiqilgan... Garchi shunday og'ir zamonlar girdobidan o'tgan bo'lsa ham, qabriston ayni damda tiklangan holda faoliyat yuritmoqda, shunday bo'lishiga ham qaramay ushbu joydagi yo'qotishlar soni tiklanganlikdan ko'ra ancha oshiqdир.

Xulosa o'rnida aytildigan bo'lsa, Buxoro shahri ushbu allomalar bilan cheklanib qolmay, ularning soni anchaginani tashkil qiladi. Xalq tilida aytadigan "Agar Buxoro tashqisida (vohasi, viloyati) mashhur Yetti Pir bo'lsa, shahar ichida yetmish pirning qabri turibdi". Aynan shu shaxslarning ko'rsatgan xizmatlari tufayli Buxoro shahri ko'plab asrlar mobaynida islom dini markazi vazifasini o'tab kelgan bo'lib, ziyoratgohlar shahri bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imom Abu Abdulloh Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabi. Mashhur daholar siyrati. -T.: "Hilol Nashr", 2017. – 140 b.
2. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. -Т.: 1981. – 224 б.
3. Воҳид С. Бухорийлар бўстони. -Т.: "Ёзувчи", 1998. – 160 б.
4. Наимов. Н. Бухорои шариф. -Бухоро. "Бухоро", 2005. – 52 б.
5. To'rayev H.H. Buxoro tarixi. Buxoro.: "Durdona", 2020. – 320 b.

¹⁵ Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. -Т.: 1981. -Б. 146-147.

¹⁶ <https://rusrav.uz/2019/08/29/kladbishhe-hodzha-ismat/> (ushbu saytga 09.05.2024 murojaat qilindi).

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

6. Фазлиддин Тоиров. Бухоро эски шаҳар гузарлари ва зиёратгоҳлари. -Бухоро.: “Бухоро нашр”, 2023. – 140 б.
7. To’Rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko’chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
8. Ismailovich T. A. Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-52.
9. To’rayev A. O’ZBEKLARNING CHORJO’YDAGI НАЙОТ ЙО’ЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
10. To’rayev A. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
11. Тўраев А. И. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР: Тураев Анвар Исмаилович, Кафедра “Всеобщей истории” Бухарского государственного университета старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 7-13.
12. To’rayev A. English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamонавиј ozgarishlar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
13. To’rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG ‘LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
14. To’Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.
15. To’Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O’RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1165-1170.
16. To’rayev A. А ЎҒУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Xorijiumaqola //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май

17. Bobohusenov, A. (2024). THE HISTORY OF THE STUDY OF ROCK PAINTINGS OF THE BUKHARA OASIS. Modern Science and Research, 3(2), 945–952. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31281>
18. Bobohusenov, A. (2024). THE HISTORY OF THE STUDY OF ROCK PAINTINGS OF THE BUKHARA OASIS. Modern Science and Research, 3(2), 945–952. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31281>
19. Bobohusenov, A. (2024). THE RESULTS OF THE ARCHAEOLOGICAL RESEARCH WORKS CARRIED OUT IN BACTRIA. Modern Science and Research, 3(2), 671–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30363>
20. Bobohusenov, A., & Ganiyev, H. (2024). ORIGIN PROBLEMS OF SAK ARCHAEOLOGICAL CULTURE OF CENTRAL ASIA. Modern Science and Research, 3(2), 641–645
21. Ashurovich, B. A. . (2024). Results of the Archaeological Research Works Carried Out in Bactria. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 113–119. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2686>
22. Bobohusenov, A. (2024). HISTORICAL GEOGRAPHY OF BUKHARA OASIS. Modern Science and Research, 3(2), 634–640. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29429>
23. Akmal , B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. Modern Science and Research, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>
24. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
25. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
26. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI . *ОБРАЗОВАНИЕ*

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май

НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

27. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

28. Tursunova, M., & Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. SCHOLAR, 1(28), 303–308. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026873>

29. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>

30. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48–53. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-09>

31. Bobohusenov Akmal, & Naimov Ismat. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73–80. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/557>

32. Bobohusenov , A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. SCHOLAR, 1(28), 298–302. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5055>

33. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142–146. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/8667>

34. Хасанова Шахноза Баходировна. (2024). ФИЛОСОФСКАЯ ПРИРОДА ЛИРИКИ И. АННЕНСКОГО. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 258–267. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11188698>

35. Хасанова Шахноза Баходировна. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОИЗНОШЕНИЮ, ГРАММАТИКЕ, ЛЕКСИКЕ И ПЕРЕВОДУ. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 431–440.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10968956>

36. Хасанова, Ш. (2024). PHRASEOLOGICAL UNITS OF THE RUSSIAN LANGUAGE. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 128–133.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10936168>

37. Баходировна , Х. Ш. . (2024). Из Истории Изучения Пословиц И Поговорок. *Miasto Przyszłości*, 46, 513–520. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2892>

38. Хасанова, Ш. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>

39. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1347>

40. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfiddin_Boharziy

41. <https://www.oyina.uz/uz/generation/171>

42. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%88%D0%B0%D0%BD%D0%98%D0%BC%D0%BB%D0%BE>

43. <https://rusrav.uz/2019/08/29/kladbishhe-hodzha-ismat/>